

Guliston davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи, Psixologiya fanlari doktori, dosent, Sharapova Saboxat Djabbarovna taqrizi ostida

**Ravshanov Sobir Abdimalikovich**  
**Guliston davlat universiteti doktoranti**  
**Telefon raqami:** [+998999144472](tel:+998999144472)  
**E-mail:** [sobirravshanov3@gmail.com](mailto:sobirravshanov3@gmail.com)

---

## ALISHER NAVOIYNING PSIXOLOGIYA FANI SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIV-XV asrlarda O‘zbekiston hududida psixologiya fanining rivojlanish davrini o‘z ichiga qamrab olib, bu davrda ijod qilgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta’lim-tarbiyaning roli va ahamiyati, samarali ilmiy ishlari olib borilganligi, va ilgari surilgan psixologik qarashlari haqida barcha ma’lumotlarga ega bo’lasiz.

**Kalit so‘zlar:** psixologiya, komillik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’rifat, statistika, ong, psixik jarayon.

---

## ALISHER NAWAI’S CONTRIBUTIONS TO THE FIELD OF PSYCHOLOGY

**Annotation:** In this article, covering the period of the development of psychology in the territory of Uzbekistan in the XIV-XV centuries, the role and importance of education in the personal development of the great thinker Alisher Navoi, who created during this period, effective scientific work, and the advanced psychological you will have all the information about views.

**Key words:** psychology, perfection, science, education, enlightenment, statistics, consciousness, mental process.

---

**Kirish qismi.** O‘tmishda O‘zbekiston hududida yashab o‘tgan buyuk allomalarining qarashlari, dono, fikrlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o‘rganish yurtdoshlarimizning ma’naviy dunyosini kengaytirish bilan birga, yosh avlodning barkamol, yetuk avlod bo’lib yetishishida muhim omillardan biri sanaladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Sharqning buyuk allomalaridan biri, o‘zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ilmiy merosini o‘rganish, undan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagog-psixologning muhim vazifasi hisoblanadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri va badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni mujassam etadigan buyuk alloma, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, shon-sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘chmas san’atkoridir. Shu o‘rinda aytish lozimki, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron –bir inson yo’qki, u Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaraydi.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar:** Tadqiqot obyekti sifatida XIV-XV asrlarda O‘zbekiston hududida yashab ijod qilgan Alisher Navoiyning psixologiya fani rivojlanishi va shakillanish jarayoniga qo‘shgan hissasi belgilab olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kuzatish, materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Alisher Navoiy (1441—1501), Hirot shahrining (hozirgi Afg‘oniston hududi) bog‘i Davlatxona deb atalagan joyida Temuriylar oilasiga mansub xonadonda

tavallud topgan.<sup>1</sup> Alisher Navoiy 10-12 yoshlaridayoq ilk she'rlari bilan nom chiqarib, o'sha davr yetuk mutaffakurlari, san'atkorlar va adiblar diqqatini jalb etgan, zamonasining taniqli madaniyat arboblari e'tiborini qozongan edi. Alisher turkiy, forsiy va arab tillarini mukammal bilgan. U 15 yoshlarida forsiy va turkiy tillarda go'zal she'rlar yaratib, zullisonayn (ikki tilda ijod etuvchi) shoir sifatida tanildi. Shoir dunyoqarashini mavhum tushunchalarda emas, balki badiiy-she'riy shaklda turli estetik vositalar yordamida jonli tasvirlagan, uning g'oya va qarashlari turli badiiy o'xshatish va ramzli iboralar orqali ifodalangan. Navoiy ijodida tafakkur xissiy estetik vositalar bilan, risolalarda esa tafakkur mantiqiy dalil-isbotlarga va ilmiy usulga asoslanadi, mulohazalar mavhum tushunchalar, aqidalar va murakkab iboralarda bayon etiladi. Ammo ikkalasi ham haqiqatni bilish usullaridir. Alisher Navoiy dostonlarining ichki, botiniy ma'nosini anglar ekanmiz, ularda ideal dunyo hayotining tasvirini ko'ramiz. Bu muhabbat va ezgulik, do'stlik va birdamlik dunyosi bo'lib, unda yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi,adolat va donolik, muhabbat va yaxshilik hukm suradi. Ularda inson ruhi (aql)ning kamolot sari yuksalishi jarayoni ifodalanadi. Navoiy qahramonlari uchun ishq bu insonda qalbini turli illatlar va hayvoniy xissiyotlar ta'siridan tozalovchi, insonda yuksak ma'naviy xis tuyg'ular uyg'otuvchi bir ruh yoki axloqiy kuchdir.

Ishq — bu inson ruhining olivjanoblik va mardlikka yuksalish yo'li, sadoqat va do'stlikni sinov yioi, inson o'zining barcha ma'naviy kuch-quvvati, jismoniy va aqliy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishining vositasidir. Navoiyning lirik qahramonlariga xos ishqda uch xususiyatni ko'rishimiz mumkin: Ishqning qurbanlik xususiyati, oshiqning abadiy dard-hasrat va halokatga mahkumligi. Asosiy g'oya — ishq yo'lida o'z-o'zini qurban qilish, har qanday qiyinchiliklar oldida bosh egmasdan yovuz

<sup>1</sup> Psixologiya tarixi. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti. 174-bet

kuchlar, zulm va jaholatga qarshi qat'iy kurash olib borishdir. Ishq yo'lida dunyoviy manfaatlami tark etish, o'zligini tark etish. Dunyo lazzatlaridan voz kechish orqali nafsn turli iilatlardan tozalash va ma'naviy kamollatga yetish talab qilinadi. Buni biz Farhod, Majnun obrazlarida, ulaming ishqida ko'rishimiz mumkin. Ishq inson qalbini tozalovchi, uni yaxshilikka da'vat etuvchi, mardlikka chorlovchi ma'naviy kuch.

Unda go'zallikka intilish yuksak axloqiy fazilatlar bilan uzviy bog'langan. Navoiy ijodida ishqni majoziy va ishqni haqiqiy kuylanadi, ular o'zaro bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langan, chunki bu ishqning har ikkala turi bir narsaga - haqiqatga qaratilgan bo'lib, maqsadlari haqiqatga yetishdan iborat. Mutafakkir shoirning tafakkur kuchi va badiiy mahorat bilan yaratilgan ijobiyl obrazlari, yuksak g'oyalar va axloqiy qoidalar dunyosi bizning davrimizda ham kishilami maftun etishi shubhasizdir.

Alisher Navoiy yosh bolalarni azoblashga, jazolashga o'rgangan, g'azabli, qoshi chimirilgan makkorlarni doimo qoralaydi. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga, mustaqil fikrga egan emaslikka ham giriftor. Ular qiyash yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va ularning beqaror tabiatini turli unsurlar bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi anglanib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi yoshga doir

xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Darhaqiqat, ustoz-murabbiylar bunday hollarda juda ko‘p mashaqqat chekadi, qiyinchilikka duchor bo‘ladi. Shu jihatdan olganda bolalarda ustoz-murabbiylarning haqi ko‘p. katta mashaqqat yo‘lida ta’lim-tarbiya topgan shogird ulg‘aygach hukmdor darajasiga erishsa ustozga qulluq qilsa arziydi. Ayni o‘rinda ustoz-murabbiylar mehnatining mashaqqatli ekanligini ta’kidlab o’tadi: “Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas.” Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay, davomiy o‘rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o‘tish muhimligini, qunt bilan ishslash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurashish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabr bilan o‘rganishni ta’kidlaydi.<sup>2</sup>

Alisher Navoiyning mashxur “Mahbub ul-qulub” asarida yurtdagi u yoki bu toifaga mansub kishilarga o‘zining shaxsiy munosabatini bildirganda, asosan ularni kontrast ikki tipga aloqador deb baholaydi. Negadir, ularning barchasi bir xil darajadagi johillar yoki odillar turkumiga dahldor ekanligi, ya’ni ijobjiy yoki salbiy xarakterli deb allomani tan olishi ayrim shubhalarni yuzaga keltiradi. Lekin insoniyatning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishida jaholat bilan ezgulik o‘rtasida domiy kurash borishi shaxsning psixologik xususiyatlari, jarayonlari tarkib topishida ham baholashning bu ikki mezoni doimiy ishtirok etadi. Xuddi shu bois, jaholat bilan ezgulik o‘rtasidagi ayovsiz kurashda hamadolat yoki ezgulik g‘alaba qiladi, o‘z-

<sup>2</sup> Psixologiya nazariyasi va tarixi; Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O R. Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. — 504 b. 96-bet

o‘zidan jaholat (yovuzlik) mag‘lub bo‘ladi. Bu ijtimoiy voqelik xalq ijodiy hayotida

muhim o‘rin egallaydi. Bu borada biz Alisher Navoiyning shaxsiy fikrlariga tanqidiy munosabat bildirishdan ancha uzoqmiz, ammo insonlarning individual-psixologik xususiyatlari aynan bir-biriga to‘g‘ri kelmasligini ta’kidlab o‘tmochimiz, xolos.

Amaldorlar to‘g‘risida Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida fikr bildirganida, asosan, amaldorlarning psixologik xususiyatlarini tariflanadi va oxir oqibatda ruhiy qiyofasi yaratiladi, muallifning o‘ziga xos qarashlari yaxlit munosabat shaklini vujudga keltiradi. Biroq qaysi vaziyat va holatlar, voqelik va sharoitlar shaxsda illatlarini paydo qiladi, degan savolga muallif obrazlar ifodasi orqali javob beradi.<sup>3</sup>

Alisher Navoiy amaldorlarning psixologik olamini tahlil qilganda, har xil tomonlari yuzasidan mulohaza yuritadi. Jumladan, “vijdonsiz, harom-xarishdan tortinmaydigan, bediyonat sadrlar—hech zarurati bo‘lmagan bid’atdir”. Muallif amaldorlarga nisbatan munosabatini bildirishda davom etib: “Agar u nokas, ilmsiz bo‘lsa, butun qilmishi – buzuqlik, fisqu fujurdir. Uning bazmidagi soz va kuy ohanglari ilm va taqvoga tutilgan azaning motam faryodidir”, deb ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy ularning illatlari to‘g‘risida fikr yuritganida, xarakter jarayoniga baho bergenida, quyidagi salbiy xulq-atvor, kuchsiz irodaga egalik, or-nomusda tubanliklarni izohlashga intiladi:

1) ilm vakillari tarafidan gulob (gul sharbati) solib keltirilgan shishalar bo'shagach, xizmatkorlari bu idishlarni may bilan to'ldiradilar. Natijada mayxo'rlik davom etib, tubanlikgacha boradi;

2) ular uchun keltirilgan novvatni ushatib, sadrlar o'z ichkiliklariga gazak qiladilar.

Mulohazalardan ko'rinish turibdiki, insofsiz amaldorlar ilm vakillarining aql-zakovati yuqori ekanligini tan olmas, ularga xizmatkorlardek qarashadi, lekin tanqidiy (o'ziga nisbat), ijobiy fikr lash bundaylarga begonadir. Shuning uchun ularning muhim vazifalari, holatlarga mas'ulligi hayot va faoliyatning boshqa jarayonlariga, narsalarga ham jismoniy, ham ruhiy ko'chirilgan. Mayxo'rlik, me'yorni bilmaslik, o'zini nazorat qila olmaslik sadrlarning illatlari hisoblanadi.

Ularning fikricha, bunga o'xshash zamonlarda "yaramaslik unda g'olib, talabalar esa yugurdaklik qiladilar. Ularning ishchilari xonaqo uchun ajratilgan noz-ne'matlarga, mahram farzandlari esa shayx va mudarris maoshiga sherik". U fikrni davom ettirib, shunday deydi: "bazmiga sharob keltirishga muhtasib rozi va unga may suzguvchi soqolli qozi".

Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida yuqoridagi adolatsizliklarni jamlashtirib ushbu xulosa chiqaradi: "mamlakatda shu kabi ta'qiqlangan omillar rivojlanaversa, islam va shariatga hurmat bo'larmidi?" degan ijtimoyi muammoni

<sup>3</sup> Psixologiya tarixi. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti. 175-bet

o'rtaga qo'yadi. Alisher Navoiy o'zi ilgari surgan fikrlarga o'zi javob berishga harakat qilishi bilan chegaralanib qolmasdan, muayyan tavsiyalar ham ishlab chiqadi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, "sadr-olimlariga dastyor,

shayxlariga xizmatkor, sayidlariga yordamchi va fuqaro xizmatiga hamma tayyor bo'lmog'i kerak. Ikkinchidan, ular zulm rishtasini uzguvchi, vaqf yerlarining

buzilganini tuzuvchi va ziroat – dexqonchilikni avj oldirishga sa'y-harakat ko'rgizuvchi bo'lmog'i kerak".

Alisher Navoiyning fikrlarini tahlil qilish shuni namoyon qilmoqdaki, jazolash bilan guruhiy, ijtimoiy xususiyat, kasb etuvchi illatlarni bartarab qilish imkoniyatini quyi bo'lganligi tufayli kishilarga hatto amaldorlarga ta'sir o'tkazishning boshqa turlarini tatbiq etish yuzasidan davlatga va uning boshqaruvchisiga muhim taklif beriladi. Bizningcha, Alisher Navoiy amaldorlarga tanbeh berish, psixologik maslahat (konsultatsiya)ni tashkil etish, hakimlar tomonidan psixokorreksiya ishlarini joriy qilish, ular bilan mashg'ulot (trening) o'tkazish yaxshi natijalarni ro'yobga chiqarish to'g'risida fikr yuritgan bo'lsa, ajab emas.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda ustozning, o'qituvchining hamda pedagoglarning o'zлari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini aytib o'tadi. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga jiddiy e'tibor qaratib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini, muhim

hususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Demak, alloma o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu qilgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari deb qanoat, adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, adolatlilik, rostgo'ylik va boshqa jarayonlarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan komil insonga yomonlik razillik hech qachon bo'lmasligi, bunday inson yashagan davlat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblagan.

Alisher Navoiy odamlarni ma'rifatli, axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Axloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir". Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehroqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, psixologiya fani XIV-XV asrlarda O'rtal Osiyo hududida toboro rivojlandi va jadal tarzda shakillanish jarayoniga kirdi. Ushbu davrda alisher Navoiy tomonidan yaratilgan ilmiy qarashlar, olib borilgan ilmiy izlanishlar bugungi davrda mustaqil O'zbekistonimizda psixologiya fanining rivojlanishi va shakillanishi uchun asos vazifasini o'tamoqda.

Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari psixologik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning psixologik qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslangan tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon mакtablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etdi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Psixologiya tarixi. N.S.Jo'rayev, D.A.Saliyeva, N.A.Sultonova. – 2019. Noshir nashriyoti.
2. Psixologiya nazariyasi va tarixi; Darslik / Baratov Sh.R., Olimov L.Y., Avezov O R. Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti, 2019. — 504 b.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. Yigirma jildlik.14-jild.T.: "Fan", 1998. – B. 83.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh jildlik. 13-jild.– T.: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1966. – B. 189-190
5. Haydarov F.I. va boshqalar. Psixologiya tarixi. (Ma'ruzalar matni). T. 2003.
6. Marsinkovskaya T.V. Istorya psixologii. M., 2002.
7. Nishanova Z. T. —Psixologiya tarixi|| T -2002-y.
8. Jdan G. —Istorya psixologii|| — Uchebnik. — M.: Izd-va J42 MGU, 1990.-367-s